



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025

Accepted: 1 February 2025

Published: 10 Febrary 2025

Article / Original Paper

INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING AND DEVELOPING STUDENTS' PHYSICAL QUALITIES

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich

Termez State Pedagogical Institute

Department of Physical Education, Senior Lecturer

Abstract. Modern institutions of higher education, as cells of knowledge and education, are called upon to form a comprehensively developed personality, an important component of which is physical education. Despite its long history, traditional methods of teaching physical education increasingly demonstrate their ineffectiveness in meeting the needs of modern students who expect an educational process of innovative approaches, diversity and practical orientation. The purpose of this article is to analyze modern trends in teaching physical education in higher education institutions, identify the most effective innovative approaches and technologies, and justify their use to improve the quality of students' physical fitness and form healthy lifestyle skills. The study identified the most popular innovative approaches and technologies to physical education that improve the effectiveness of learning and the development of students' physical qualities such as the technology of a personality-oriented educational process, interactive learning, the technology of creative personality formation, information and communication technologies, the technology of differentiated physical education education, the technology of health preservation.

Keywords: higher education, innovative approaches, physical education, teaching, activity, learning, student.

TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich,

Termiz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrasи, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta'lrim muassasalari bilim va tarbiya maskani sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning muhim tarkibiy qismi jismoniy tarbiya hisoblanadi. Uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, an'anaviy jismoniy tarbiya metodlari zamonaviy talabalarning ehtiyojlarini qondirishda tobora samarasiz ekanligini namoyon etmoqda. Bugungi talabalar o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlar, xilma-xillik va amaliy yo'nalishga ega bo'lishini kutmoqdalar. Ushbu maqolaning maqsadi — oliy ta'lrim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o'qitishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, eng samarali innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni aniqlash hamda ularning qo'llanilishini talabalarning jismoniy tayyorgarlik sifatini oshirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida jismoniy tarbiya bo'yicha eng ommabop innovatsion yondashuv va texnologiyalar aniqlandi. Ular orasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim texnologiyasi, interaktiv o'qitish, ijodiy shaxsni shakllantirish texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, differensial jismoniy tarbiya texnologiyasi hamda sog'liqni saqlash texnologiyasi ta'lrim samaradorligini oshirish va talabalar jismoniy sifatlarini rivojlanirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lrim, innovatsion yondashuvlar, jismoniy tarbiya, o'qitish, faoliik, ta'lrim, talaba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N93>

Kirish. Zamonaviy dunyo jadal rivojlanib, har bir inson oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bu, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan yosh

avlodga taalluqlidir. Shu sababli, jismoniy salomatlik va rivojlanish masalasi tobora dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalari bilim va tarbiya maskani sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri jismoniy madaniyatdir.

Biroq, an'anaviy yondashuvlar ko'pincha zamonaviy talabalar ehtiyojlariga va bugungi kundagi real sharoitlarga to'liq javob bermaydi. Yoshlar innovatsiyalar, xilma-xillik va amaliy foydaga intilmoqdalar. Shu boisdan, nafaqat talabalarning sog'lagini mustahkamlash, balki ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish va faol dam olishga undovchi yangi, samarali ta'lim usullarini joriy etish zarurati paydo bo'lmoqda.

Innovatsion yondashuvlarni joriy etish jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yanada qiziqarli, xilma-xil va samarali qilishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini olib borishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan ushbu maqolaning maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o'qitishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, eng samarali innovatsion yondashuv va texnologiyalarni aniqlash hamda ularning qo'llanilishini talabalarning jismoniy tayyorgarlik sifatini oshirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan asoslashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiya va yondashuvlardan foydalanish muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'r ganilgan. Xususan, X. Shavelev va L. Sokolenkoning ilmiy ishlanmalari oliy ta'lim sohasida jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida innovatsion modellardan foydalanishga bag'ishlangan [3; 43-45 b.].

Tadqiqotchilar ta'lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar ta'lim mazmunining dinamikligi, shakllarining o'zgaruvchanligi hamda eng yangi metod va texnologiyalar orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydilar. Ular innovatsion modellarga muammoli o'qitish, kontekstual model, modul asosida o'qitish, bilimlarni to'liq o'zlashtirish modeli hamda masofaviy ta'lim tizimini kiritadilar [3; 43 b.].

Talabalarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ta'minotdan foydalanish masalasi O.Cherepovskaya, V.Svetlik va O.Varlamov tomonidan innovatsiyalar prizmasi orqali ko'rib chiqilgan. Ularning mualliflik metodikasi amaldagi tizim bilan solishtirilganda talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilashda ijobiy natijalar bergenligi aniqlangan [5; 121 b.].

Shuningdek, L.Livak, Yu.Konoval va O.Cherepovskaya har qanday harbiy mojarolar ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarda psixologik jarohatlar hamda stressga olib kelishini ta'kidlaydilar. Shu boisdan, turmush tarzi va jismoniy faollikni innovatsion texnologiyalar va interaktiv platformalar orqali rivojlantirish muhim bo'lib, bu usullar shaxsiylashtirilgan mashg'ulot dasturlarini ta'minlaydi [5; 121 b.].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, sog'lom avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar maqsadlar, mazmun, metodlar, o'qitish usullari hamda pedagog va talabalar o'rtasidagi hamkorlik shakllari va uslublariga yangiliklar kiritishni nazarda tutadi. Shuningdek, innovatsiyalar standart

vaziyatlarda pedagog va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar metodikasini ham qamrab oladi [1; 137 b.].

Jismoniy tarbiya sohasidagi innovatsiyalar nafaqat talabalar jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, balki ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga, o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar talabalarda o'z ustida ishslash va doimiy ravishda o'zini takomillashtirish istagini uyg'otadi.

Zamonaviy tadqiqotlarga asoslanib, jismoniy tarbiya va yoshlar ta'limida innovatsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlash mumkin [1; 138 b]:

- sikliklik - innovatsiyaning rivojlanish bosqichlarining izchil ketma-ketligi;
- dolzarblik - innovatsiyaning zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos kelishi;
- yangiligi - sog'lomlashtirishga innovatsion yondashuvni joriy etish va yuqori samaradorlikka erishish;
- natijalarning barqarorligi - innovatsiyalarning tizimli tarzda barcha sog'lomlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi;
- optimallik - ilg'or tajribalarni jismoniy tarbiya va sportning barcha darajalarida qo'llash imkoniyati.

Shuni ta'kidlash joizki, jismoniy tarbiya quyidagi hollarda innovatsion hisoblanadi [2; 571 b.]:

- uning tarkibiy elementlari ilmiy jihatdan endi o'rganilmoqda va hali zamonaviy amaliyotda keng tarqalmagan bo'lsa;
- mavjud va keng qo'llanilayotgan jismoniy tarbiya vositalari yangicha yondashuv va o'zgartirilgan kontekstda qo'llanilsa;
- jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonning yangi konsepsiysi ishlab chiqilsa va u avvalgi tadqiqotlarga asoslansa;
- shaxsning ijtimoiy hayot tamoyillari qayta ko'rib chiqilib, uning rivojlanish yo'naliishlari aniqlansa va individual tarzda mos jismoniy tarbiya vositalari tanlansa.

Shu boisdan, zamonaviy jismoniy tarbiya texnologiyalarining asosiy ustunligi shundaki, ular, avvalo, talabalar uchun qiziqarli bo'lib, ularning sport bilan shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy qiziqishni kuchaytiradi [4; 80 b.].

Natijalar. Hozirgi kunda talabalarni jismoniy tarbiyalashda ikkita asosiy muammo mavjud:

1. Talabalar uchun sog'liqni saqlash, aqliy va jismoniy ish qobiliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan jismoniy faoliyat hajmini qanday ta'minlash mumkin?
2. O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini qanday oshirish mumkin?

Birinchi muammo asosan kun davomida jismoniy tarbiyani tashkil etish masalalarini hal qilishni talab etsa, ikkinchi muammo talabalar uchun differensial yondashuv yo'llarini izlash, o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va innovatsion ta'lim yondashuvlaridan foydalanish bilan bog'liq [6; 233 b.].

Zamonaviy jismoniy tarbiya darslari talabalar shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning qobiliyatlarini, istaklari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etiladi. Jismoniy tarbiyani shaxsga yo'naltirilgan holda o'qitish texnologiyasi quyidagi innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalar jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish uchun sharoit yaratish.
2. Mashg'ulotlarda talabalar faoliyatini turli shakl va usullarda tashkil etish, bu orqali ularning individual tajribalarini ochib berish.
3. Har bir talabani guruh ishida faol ishtirok etishga qiziqtiradigan muhit yaratish.
4. Mashg'ulot davomida talabaga o'ziga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkoniyatini beruvchi didaktik materiallardan foydalanish.
5. Talabaning faoliyatini faqat yakuniy natijaga qarab emas, balki jarayon davomida erishilgan yutuqlarga ko'ra baholash.
6. Talabalarning tabiiy o'zini ifoda etishlari uchun qulay muhit yaratish.

Shunday qilib, talabalarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash hamda ularning ish qobiliyatini oshirish maqsadida, oliv o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda har bir talabaga individual yondashish va jismoniy mashg'ulotlarning ilmiy tamoyillariga rioya qilish muhimdir.

Ijodkor shaxsni shakllantirish texnologiyasi har bir talaba uchun jismoniy tarbiyaning barcha jihatlarini o'zlashtirish bo'yicha individual dastur tuzishni nazarda tutadi. Bu jarayonda talabani jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlariga mustaqil ravishda jalg etish muhim o'rinni tutadi. Mustaqil mashg'ulotlarga moyillik zaruriy o'quv materialini samarali o'zlashtirishga, jismoniy kamolot jarayonini tezlashtirishga, ma'naviy rivojlanishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga yordam beradi hamda jismoniy tarbiya va sportni talabalar kundalik hayotiga kiritishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Mazkur texnologiyani joriy etish quyidagilarni talab etadi:

- Ijtimoiy-psixologik yondashuv - talabalar ongida jismoniy tarbiya qadriyatlarini anglash va ularga faol munosabatni shakllantirish orqali hayot falsafasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

- Intellektual yondashuv - psixologik-pedagogik, ijtimoiy-madaniy, tibbiy-biologik va jismoniy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilimlar kompleksini talabalar ongida shakllantirishni ko'zda tutadi.

- Sportga yo'naltirilgan yondashuv - talabalar o'zları tanlagan sport turi yoki bir nechta sport bilan shug'ullanish orqali ilmiy-uslubiy ishlanmalar va sport tayyorgarlik texnologiyalaridan foydalanishlari, o'zlarining harakat ehtiyojlarini amalga oshirishlari va sport madaniyatini shakllantirishlariga asoslanadi.

- Harakat (jismoniy) yondashuvi - talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, harakatlarni boshqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Interfaol texnologiyalar - bu o'quv jarayonini shunday tashkil etish usullari va vositalari majmuasidirki, bunda talaba bilish faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ya'ni, o'quv jarayonida shunday sharoit yaratiladi, bunda ishtirokchi o'zini muvaffaqiyatli va yetuk his qiladi, ta'lim jarayoni esa ong va hissiyotlarni faollashtirish orqali samaradorlikka erishadi. Bu esa ma'lumotlarning yaxshiroq esda qolishiga yordam beradi hamda ta'lim mazmunini yangicha va noodatiy shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanishi, ularning pedagogik amaliyotga faol joriy etilishi va zamonaviy urush sharoitlari bilan bog'liq haqiqatlardan kelib chiqadi. Ta'lim muassasalarida

sport sohasining axborotlashtirilishi global tendensiyalar ta'sirida axborot texnologiyalarining hayotning barcha sohalariga integratsiyalashuvi natijasidir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi raqamli texnologiyalar bilimlar industriyasining yangi rivojlanish ufqlarini ochmoqda. Ular innovatsion dasturiy platformalarni yaratish, kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda jismoniy faollikning yangi shakllarini joriy etishga xizmat qiladi.

Differensial jismoniy tarbiya texnologiyasi talabalar bilan individual ishslashga yo'naltirilgan. Ushbu texnologiyaning asosiy yondashuvlari individual topshiriqlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ular mashg'ulotlar davomida ham, mustaqil bajarish uchun ham mo'ljallangan. Bunda natijalar faqat yakuniy ko'rsatkichlarga emas, balki ularning dinamikasiga - o'sish sur'atiga qarab baholanadi. Bu yondashuv talabalar orasida mustahkam motivatsiyani shakllantiradi hamda faol fuqarolik pozitsiyasining asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Turli darajadagi o'qitish texnologiyasining joriy etilishi jismoniy yuklamalarni individuallashtirish va talabalar mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali mexanizm yaratishga imkon berdi. Reyting tizimi tezda talabalarni moslashtirib, ularni nazorat topshiriqlarini bajarganda yuqori ball olishga undaydi, bu esa ularning jismoniy sifatlarini tasdiqlashga va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini muntazam tashrif buyurishga, sport musobaqalari hamda ommaviy sport tadbirlarida faol ishtiroy etishga yordam beradi.

Salomatlikni saqlash texnologiyalari talabalarining jismoniy va ruhiy farovonligini ta'minlash, ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish va bu bilimlarni amaliyatda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalar talabalarning yosh xususiyatlari, harakat va statik yuklamalarning optimal uyg'unligi, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish hamda mashqlarni o'zlashtirish ketma-ketligi va ko'rgazmali vositalardan foydalanish tamoyillariga asoslangani sababli, talabalarning sog'lig'iga eng katta ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalar hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar jismoniy tarbiya jarayonida samarali vositaga aylanib, talabalar jismoniy, axloqiy, intellektual va estetik rivojlanishida yuqori natijalarga erishishga yordam bermoqda. Bu yondashuv ta'limning kompleks tamoyillarini saqlagan holda qo'llaniladi.

Jismoniy tarbiyaning o'quv-tarbiyaviy jarayonini kompleks tashkil etish yangi harakat faoliyati turlarini o'zlashtirishda mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlash, innovatsion vositalar va metodlarni an'anaviy yondashuvlarni to'ldirish uchun qo'llashni nazarda tutadi. Bu nafaqat talabalar jismoniy rivojlanishini ta'minlash, balki ularning intellektual va axloqiy kamolotiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Kompleksli yondashuvning muhim elementi - bu talabalar jismoniy salomatligini muntazam kuzatib borish tizimi bo'lib, u test natijalari va normativlar asosida individual ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishga asoslangan.

Talabalarning sog'lig'ini saqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilishning asosiy modeli quyidagi besh blokdan iborat:

- umumiy statistik sog'liq ko'rsatkichlari, sog'liqni saqlash faoliyatining tizimliligi va izchilligi;
- ta'lim jarayonining psixofiziologik qulaylik ko'rsatkichlari;
- oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari;

- talabalar bilan ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish va ularni mustaqil faoliyatga jalb etish.

Jismoniy tarbiya sohasida innovatsion texnologiyalarni loyihalashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olish, keng qamrovli omillarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular qatoriga talabalar bilim darajasi, jismoniy rivojlanishi, psixologik holati, motivatsiyasi, qiziqishlari va turmush tarzi kiradi. Bu yondashuv yanada samarali va individual o'quv dasturlarini yaratish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiyaning samaradorligi faqat o'zlashtirilgan bilim darajasi bilan emas, balki talabalar ichki motivatsiyasi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri motivatsiyani o'rganishdir, chunki aynan u muntazam jismoniy faoliyat va istalgan natijalarga erishishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarning asosiy afzalligi - ularning talaba shaxsiga yo'naltirilganligidir. Bu esa talabalarning sportga bo'lgan qiziqishi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qatnashish motivatsiyasini oshiradi.

Jismoniy tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish:

- talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda;
- ularning sportga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatadi.

Yangi o'quv dasturlari va jismoniy faoliyk turlari talabalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog'lig'ini yaxshilash va sog'lom turmush tarziga barqaror qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi. Bu jarayon faqat nazorat me'yorlarini bajarish bilan cheklanmay, balki talabalarni butun umri davomida jismoniy faollikkha jalb etishga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi ularning yuqori samaradorligi bilan tasdiqlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Turdimurodov, D. (2024). Talabalarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish xususiyatlari. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 1(2), 135-140 б.
2. Turdimurodov, D. (2024). Maktabgacha yoshdag'i bolalar jismoniy tarbiyasining pedagogik shartlari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 4(S/9), 570-575.
3. Шавелев Х. Э., Соколенко Л. С. Инновационные модели подготовки соискателей высшего образования в сфере физического воспитания и спорта. Академические видения. - 2023. № 17. 43-47 б.
4. Соколенко Л. С. Интеграция новейших методик преподавания физического воспитания в высших учебных заведениях с использованием технологий для дистанционного обучения. Академические видения. - 2023. № 20. 77-80 б.
5. Череповская О.А. Оптимизация физической подготовленности студентов с использованием разработанного методического обеспечения в физическом воспитании высшего образования. Научный журнал. - 2022. Выпуск 2(108). 119-131 б.

6. Лоза Т. О. Обоснование необходимости внедрения инновационных технологий в процесс физического воспитания студенческой молодежи. Педагогические науки: физическое воспитание и спорт. - 2021. № 2. 232-236 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).